



**O‘ZBEKISTONDA ILK SHAHARSOZLIK BELGILARINI PAYDO
BO‘LISHI: SOPOLLITEPA VA JARQO‘TON MADANIYATI MISOLIDA**

Raxmatullayeva Nigoraxon Nizomiddinovna,

Sobirov Sardor Alisher o‘g‘li.

*O‘zbekiston amaliy san‘at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi, Amaliy
san‘at va etnografiya ilmiy bo‘limi mudiri, Ilmiy hodim*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, biz O‘zbekiston shaharsozlik madaniyatini Jarqo‘ton va Sopollitepa yodgorliklari misolida o‘rganamiz. Shuningdek, Bu yodgorliklarda shaharsozlik belgilari va xususiyatlarini ajratib o‘rganiladi va ilmiy-nadqiq etiladi.

Annotation. In this article, we will study the urban planning culture of Uzbekistan through the examples of the Jarqo‘ton and Sopollitepa archaeological sites. We will also identify and analyze the urban planning features and distinctive characteristics of these sites.

Аннотация: В данной статье мы рассматриваем градостроительную культуру Узбекистана на примере памятников Джаркутан и Саполлитепа. Кроме того, в работе выделяются и анализируются признаки и особенности градостроительства, присущие этим памятникам.

Kalit so‘zlar: Sopollitepa, Jarqo‘ton, ark a‘lo, shahriston, ibodatxona, Shimoliy Baqtriya, gliptika, epigrafika, muhrlar.

Key words: Sopollitepa, Jarqo‘ton, ark, shahristan, temple, Northern Bactria, glyptics, epigraphy, seals.

Ключевые слова: Саполлитепа, Жаркутан, арк, шахристан, храм, Северная Бактрия, глиптика, эпиграфика, печати.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng, mamlakatimiz tarixiga munosabat o‘zgardi. Prezident I. A. Karimovning bir guruh tarixchi olimlar va



ommaviy axborot xodimlari bilan uchrashuvidan so'ng uning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli asari chop etildi. Bu asar tarix fani rivojida yangidan-yangi ilmiy yo'nalishlar, tarixga munosabat masalasida yangi qarashlarning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. **I. A. Karimov O'zbek xalqining tarixiy o'tmishini, uning davlatchiligi tarixini o'rganishda yagona ilmiy konsepsiyaning y o'qligi xususida gapirib, tarixchi olimlarni bu sohaga diqqat-e'tiborini yanada kuchaytirishga chaqirdi. Prezident ta'kidladiki, « O'zligini anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab qulmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishishi zarur». Tarixni yoritishda biryoqlamalika, sub'ektiv fikrlarga yo'l qo'ymaslik zarur, «faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatadi», - deb ta'kidlaydi. O'zbekiston tarixini davrlashtirishda, sivilizatsiya va shaharsozlik madaniyati haqida qarashlarni shakllantirishda Prezidentimizning quyidagi gaplari arxeolog va tarixchilarni uslubimizga aylanib bormoqda: «Har qanday sivilizatsiya ko'pdan-ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va o'zaro samarali ta'sirining mahsulidir... » Biz bayon etmoqchi bo'lgan birlamchi manba O'zbekistonda davlatchilik tarixining 3500 yildan kam emasligi haqida arxeologik materiallarida aks etmoq. Bu noyob manba O'zbekistonning janubiy hududlarida arxeologlar tomonidan 100 dan ortiq yodgorliklar o'rganilgan. Ayrim yodgorliklarda ilk shaharsozlik belgilari aniqlangan.**

O'rta Osiyoda shaharlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi borasidagi olimlar o'rtasidagi haligacha munozaralarning asosiy sababi bo'lib kelmoqda. Shu sababli shaharsozlik belgilarini va davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi masalasini alohida ilmiy muammolar sifatida tarixchi va arxeologlar tomonidan keng o'rganilmoqda. Bir qancha yunon olimlari, Geradot va boshqa olimlarning asarida O'rta Osiyoda bir qancha shaharlar nomlari yozib qoldirilgan. Strabon mil. avv. I asr – mil. I asrlarda yashagan. Uning Geografik asarlarida Sug'diyona va Baktriya shaharlari haqida yozilgan. Arrian (mil. II asr) “Aleksandr yurishlari” asarida Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyodagi yurishlari tafsilotlarini keltiradi. Ktesiy (mil. avv. V asr) eramizdan avvalgi davrda yashagan bu tarixchi



Baqtriya va So'g'diyona hududidagi shaharlar haqida afsonaviy va tarixiy ma'lumotlar bergan. Ptolemey (mil. II asr) Geografik xaritalarida Sug'diyona, Baqtriya, Marg'iyona kabi mintaqalarni va ularning shaharlarini tasvirlaydi. Agar yunon manbalarini asos qiladigan bo'lsak, O'rta Osiyoda ilk shaharlar antik davrida paydo bo'lgan. Ammo SSSR va Mustaqillik davridagi arxeologik tadqiqotlar va ekspeditsiyalar sababli yirik shaharlar xarobalari topib o'rganildi. Ularni madaniy qatlamlarni o'rganilganda yodgorliklarni sanasi ancha qadimiy ekanligini aniqlandi. Ammo yodgorliklarni davrlashtirishlarni eng mukammal degan fikrdan yiroqmiz. Maqbul bo'lmagan davrlashtirishlar ham fikr, g'oya sifatida fanda turishga haqli, albatta. Ammo O'zbekiston tarixini davrlashtirish bo'yicha nazariyotchi tarixchilar guruhini shakllantirish va bu masalani hal etish hozirgi kun tarix va arxeologiya fanining eng dolzarb masalalaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tish lozim, albatta. O'zbekistonda shaharsozlik xususiyatlari va belgilarini o'rganishda arxeologlar va tarixchilar tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, akademik A. Asqarov, A. Sagdullayev, T. Shirinov, Sh. Shaydullayev va A. Shaydullayev kabi arxeologlar Janubiy O'zbekistondagi Sopollitepa Jarqo'ton va boshqa yodgorliklarni o'rganishgan.

Sopollitepa yodgorligi. Sopollitepa xarobasi miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi choragida Amudaryo yaqinidagi Ko'hitang to'gi oralig'ida tarkib topgan Sherobod cho'liga olib chiquvchi daralardan birida otilib chiqqan Qaynarbuloq asosida tarkib topgan Ulonbuloqsoy yoqasida joylashgan. Sherobod cho'lining o'zlashtirilishi sababli 1960-yillarda Shimoliy Baqtriyada hozirgi O'zbekistonning janubiy hududi bo'lgani bilan qadimgi dehqonchilik madaniyatining noyob yodgorligi Sopollitepa topiladi. Sopollitepa yodgorligini arxeolog L. Albaum tomonidan 1968-yilda topilgan. Yodgorlikda 1969-1974-yillarda tadqiqot ishlarini A.Asqarov tomonidan amalga oshiriladi. Manbalarda keltirilishicha, Akademik A.Asqarov tomonidan 20 ta yodgorlik topilgan.

Bugungi kunda arxeologlar sopollitepa madaniyatining rivojlanishi 5 ta asosiy xronologik bosqichga bo'lishgan. O'zbekiston arxeologlarining keying



yillarda olib borgan tadqiqotlari natijasida Sopollitepa madaniyatining xronologik sanasi ancha aniqlashtirildi.

1. Sopolli davri - miloddan avvalgi 2150 -1900 yillar
2. Jarqo‘ton davri – miloddan avvalgi 1900 – 1600 yillar
3. Ko‘zali davri -miladdan avvalgi 1600 - 1450 yillar
4. Mo‘lali davri - miladdan avvalgi 1450 – 1250 yillar
5. Bo‘ston davri - miloddan avvalgi 1250 - 1000 yillar.

Sopollitepa maydoning katta qismi mahalliy aholi tomonidan o‘zlashtirilib yuborilgan, faqatgina qal’aning markaziy qismigina yaxshi saqlangan qolgan. Qal’a atrofidagi sochilib yotgan sopol parchalari, tosh yo‘rguchoqlar, urchuqtosh va hayvon suyaklari, turli xil mehnat qurollariga qaraganda yodgorlikning umumiy maydoni o‘z davrida 4-5- gektardan kam bo‘lmagan . Qal’a kvadrat shakldagi 82X82 metr bo‘lgan istehkomdir. Qal’a mudofa devorlari somon qo‘shilgan xom g‘ishtdan qurilgan, uning qalinligi 2 metrni tashkil etadi. Mudofa devorlari to‘lg‘ama tuzoq usulida ishlab chqilgan bo‘lib, aniq o‘lchamli koridorsimon bloklarga bo‘lingan. Tashqi bloklar yo‘laklar orqali ichkaridagi uy-joylarga birlashtirilib yuborilgan. Ichki bloklar esa mudofa tizimi sifatida dushman uchun qopqon vazifasini bajargan. Tashqaridan qaraganda ular qal’aga olib kiradigan darvozalarga o‘xshaydi. Ammo qal’aga faqat bitta darvozadan kirish mumkin bo‘lgan. U ham qal’aning janubiy tomonida joylashgan. Qolganlari bosqinchilar uchun “yolg‘on darvoza” bo‘lgan. Bu narsa qachon dushman hujum qilganda aholini dushman hujumidan himoya qilishga imkoniyat bergan. Bunday mudofaa tizimi mavjudligi o‘sha davrdagi yashagan odamlarni qanchalik aqilli bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shu asosda biz xulosa chiqaradigan bo‘lsak, bu yerda yashagan aholi mohir me’mor bo‘lganligini ko‘rsatadi. Lekin, arxeologik qazishmalar davomida hech qanday hujum belgilar yoki kuygan devorlar qoldig‘i topilmagan. Shu sababli mudofa tizimidagi ichki va tashqi bloklar keyingi bosqichlarida urug‘ xilxonasi, uy-joy, kulolchilik ustoxonasi sifatida foydalanishgan.

Sopollitepadagi uy-joylar 8 ta kvartallarga bo‘lishgan. Har bir kvartallar urug‘ jamoalar joylashgan. Dastlab uy-joy komplekslari qal’a ichki devorlariga



yopishtirib qurilib, kuzatilgan uchta qurilish davomida ular qal'a markaziy maydoni bilan bog'langan tor ko'chalar bo'ylab kengayib borgan. Qazishmalar jarayonida topilgan turli xil arxeologik materiallar tahlili hamda yodgorlikning qurilish rejasiga ko'ra, Sopollitepa 8 ta bronza davri patriarxal urug'lar moslashtirilgan. Har bir kvartalda aholisini ehtiyojlari uchun 2-3 yoki undan ortiq xumdon va non pishiriladigan maxsus tandirlar va yashashi uchun uy-joy qoldiqlari va 158 ta qabr topilgan. Boshqa bir manbada ham shunga yaqin bo'lgan raqamlar keltrilib o'tiladi. Olimlarning fikricha, qishloq aholisi 155-315 kishidan iborat bo'lgan. Har bir oilaning o'z uyi bo'lgan. Uylar xom g'ishtlar yordamida qurilgan. Qabrlar asosan ayvonli lahad tuzilishida bo'lib, qabrlarning ayvon qismi doimo sharqda joylashgan, uning g'arbiy devori ostida lahadga kiruvchi eshigi bo'lgan. Qabr to'riga murdalar kuzatuv buyumlari bilan yoki hayotida ishlatgan buyumlari bilan yotqizilgan. Hsunga qaraganda "Narigi dunyo" tushunchasi ularda kuchli bo'lgan ko'rinadi.

Jarqo'ton yodgorligi - Jarqo'ton yodgorligi (miloddan avvalgi 1900 – 1600 yillar) **Termiz shahridan 60 km chamasi shimolda, Sherobod daryosining qadimda Amudaryogacha suvi borib etgan, hozirda esa suvsiz to'qayzorga aylangan Bo'stonsoyning chap sohilida joylashgan. Jarqo'ton yodgorligi O'zbekiston hududida bronza davridagi yodgorliklar orasida eng mashhuri hisoblanadi. Jarqo'tonning oddiy qishloq jamoasining maskanida Respublika hududidagi eng qadimgi ilk shahar darajasiga o'sib chiqish jarayonlari kuzatildi. Uning umumiy maydoni 3 gektardan kam hududni tashkil etadi. Jarqo'ton 2 qismdan iborat. Ular Arki a'lo shahar sardorining (hokimi) yashash uchun va shahriston qismida asosan hurnarmandlar yashagan. Arko a'loda arxeologlar tomonidan metall eritish va metallardan mehnat va harbiy qurollar ishlab chiqarish ustaxonasi (chilangari ustaxonasi), uy-joy komplekslari ochib o'rganishgan. Uning qalin mudofaa devori, qal'aga kirish darvozasi o'rganildi.**

Jarqo'ton ibodatxonasi to'rtburchak shaklda (44,5 x 60 m) bo'lib, uning tomonlari quyoshning yo'nalishiga moslashtirib qurilgan. Butun majmua qalin (4,5 m) pishiq g'ishtdan terilgan mustahkam devorlar bilan o'rab olingan. Ibodatxona



tuzilishiga ko‘ra ikki asosiy qismdan iborat: ibodatxona zali va unga tutash xo‘jalik qismi. Majmuaning markazida muqaddas saqlanma joy-saqlang‘oh joylashgan. Uning sharq tomonida (35 x 35 m) hovli mavjud bo‘lib, ibodatxonaning muqaddas qismi zal, mehrob, kirish yo‘laklari, koridorlar hamda otashparastlarga xos marosim platformasidan iborat. Zal, mehrob va yondosh xo‘jalik maydoni to‘rt tomondan ayvonlar bilan bog‘langan. Mehrobgga hovlidan kichik hovliga o‘tish yo‘li orqali kiriladi. Bu kichik hovli 70 sm kenglikdagi tosh yo‘lak bilan o‘ralgan. Muqaddas saqlang‘ohning shimoliy va janubiy tomonlarida bittadan xona mavjud bo‘lib, shimoliy devordagi xonada o‘choq va devor bo‘ylab supa qurilgan. Ushbu xona “mubodalar xonasi” sifatida atalgan. Shuningdek, saqlang‘ohning shimoliy-sharqiy burchagida joylashgan sakkizta supali zal bo‘lgan. Bu joy amalda bosh otashxonga kelgan ziyoratchilar guruhleri navbat kutib o‘tiradigan kutish zali vazifasini bajargan. Ushbu zallarga kirish ibodatxona devorlari ortidagi koridor orqali amalga oshirilgan. T. Sh. Shirinov Jarqo‘ton yodgorligini o‘rganib o‘zbekistonda shaharsozlik madaniyati bronza davrida shakllanganligini isbotlab berdi. Jarqo‘tonni qurilish arxitekturasini va arxeologik qazishmalar davomida topilgan buyumlarni o‘rganib 9 asosiy xususiyatlarini aniqladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Jamoa boshliqlari yoki hukmdorlari istiqomat qiladigan saroylarning bo‘lishi.
2. O‘lkaning diniy markazi bo‘lgan mahobatli ibodatxonalarining bo‘lishi.
3. Mudofaa devorlari bilan o‘ralgan arkning bo‘lishi va ark hududida saroy aholisi yashaydigan uylarning joylashishi.
4. Keng hududda shahar aholisi yashaydigan imoratlarning bo‘lishi, umumjamoa uchun xizmat qiladigan inshootlarning joylashishi, o‘sha hududda ishlab chiqarish kuchlari – hunarmandchilik ustaxonalar va dastgohlarining jamlanishi.
5. Yuqori darajada rivojlangan hunarmandchilik (kulolchilik, chilangarlik, to‘qimachilik, qurilish, toshga va teriga ishlov beruvchi kundchilik) kvartallarining bo‘lishi.



6. Muhr yoki qimmatbaho buyumlar uchraydigan “boy” qabrlarning mavjudligi.

7. Shahar aholisining ierarxiyasini ko‘rsatuvchi, aholi istiqomat qiladigan uylarining bir-biridan tubdan farq qilishi.

8. Savdoning rivojini ko‘rsatuvchi, boshqa madaniyatlarga xos bo‘lgan ashyolarning topilishi.

9. Gliptika, epigrafika va ibtidoiy yozuv shakllarining bo‘lishi.

Bu shaharsozlik belgilarining barchasi Jarqo‘ton tolaqonli aks etgan va ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan tan olingan.

Xulosa qilib shuni takidlashimiz mumkinki, O‘zbekistonda shaharsozlik madaniyati bronza davrida to‘laqonli shakllanganligini arxeologik materiallarda to‘laqonli isbotini topmoqda. Ayniqsa, Janubiy O‘zbekiston hududida bronza davriga tegishli Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorligi o‘z shaharsozlik belgilari bilan ko‘plab Arxeolog va tarixchilarni o‘ziga jalb qilmoqda. Hatto hozirgacha arxeologik tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Agar yozma manbalarga ishonadigan bo‘lsak, O‘zbekiston urbanizatsiya jarayonlari antik davrda boshlangan deb ishonilgan. Arxeologlar Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklari topilguniga qadar shu qarash mavjud bo‘lgan. Ayniqsa Jarqo‘ton qurilish arxitekturasida bunda yaqol aks etgan. Uning 2 qismga bo‘linganligi va markazida ibodatxona joylashgan shahar ekanligini isbotlaydi. Shirinovning tadqiqotlarida 9 xususiyatlarini aniqlanganligi bu O‘zbekiston shaharsozlik madaniyati allaqachon bronza davda shakllanganligini isbotlamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduxomitov. N.X. Sopollitepa yodgorligi va uning o‘rganilish tarixi. 2025. 221-224 bet.
2. Анвар.В, Шайдуллаев. А, Йулдошева. 3. Окс цивилизацияси. Тошкент «Yanginashr». 2015. 32-Б
3. Аскарлов. А. Сапаллитепа. издательств о «фан. УзССР Ташкент. 1973. 6-Б



4. Турсунов С. Н., Турсунов А. С., Тоғаев М. Р. *Шеробод тарихи ва этнографияси*. 2014. 31 – 35 В.
5. Аскарлов А. История происхождения узбекского народа. Ташкент. 2018. 150 – 155 В.